Pro Index
Journal of Innovation in Educational and Social Research
Volume: 2 Issue: 1 Year: 2024
ISSN: 2992-894X | http://journals.proindex.uz

Moyli O‘Simliklar Zararkunandalari Va Ularga Qarshi Kurash Choralari

M. Masodiqova
Fargona davlat unversiteti Biotexnologiya kafedrasi o’qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada dunyoda oziq-ovqat uchun zarar keltiradigan zararkunandalari va ularni zarari hamda ulardan himoya qilish chora tadbirlari yoritib berilgan.

Kalit so’z: fauna, flora, maxsar ildiz biti, bo‘tako‘z, bo‘ztikan, kakrada.

Republikamizning tabiati juda xilma-xil bo’lib, cho’l, tog’ va to’qayzorlar o’simlik dunyosi o’ziga xos tartibda, bir biriga bog’liq holda o’sadi va rivojlanadi. O’ziga xos bu hayot sharoitiga ma’lum darajada moslashgan o’simliklargina yashab qolishadi. Yovvoyi fauna va floradan foydalanish bilan bir qatorda, ularning sonini asrash va yo’qolish arafasidagi o’simlik dunyosini saqlab qolishimiz muhim albatta. O’simlik dunyosi tabiiy muhitning asosiy bo’g’inlaridan biri bo’lib, vatanimiz tabiiy boyliklarini muhim tarkibiy qismidir.U xalq xo’jaligining ehtiyojlarini qondirish uchun zarur bo’lgan sanoat, dori-darmon, xom ashyo, oziq ovqat mahsulotlari va boshqa moddiy boyliklar maqsadida foydalaniladigan manba bo’lib xizmat qiladi.

Respulikamizda moyli yeryong‘oq osimliklar yetishtirish bo‘yicha dunyoda 51-o‘rinda hosildorlik ko’rsatkichi bo’yicha bugungi kunda birinchi o’rini egallab kelmoqda. Moyli o‘simliklarda ham boshqa ekinlardagiga o‘xshab, ko‘plab zararkunandalar uchraydi. Ko‘k chigirtkalar (Tettigonidae), maxsar biti (Macrosiphum jaceac L), maxsar ildiz biti (Brachunguis anuraphoides Nev), kunjut qo‘ng‘izi (Acmaeodera ballioni Gangl), maxsar ildiz filchasi (Mesogroicus petraeus Faust), bronza tusli qo‘ng‘izlar (Getoniini), chumoli (Formicidae), soya, yeryong‘oq va kanakunjutning o‘rgimchakkanasi (Tatrenychus relarius L) va boshqalar. Qishloq xo‘jalik ekinlarining zararkunandalariga qarshi kurash usullaridan foydalanish qator shart-sharoitlarga bog‘liq. Bunda ekinlarning turi, zararkunandalarning biologik xususiyatlari, qo‘llaniladigan agro-texnika chora-tadbirlari, o‘simliklarning rivojlanish fazalari, usulni qo‘llash joyi, usulning texnologiyasi, zararkunandalarning turi va soni, o‘simliklarni zararlash darajasi va amalga oshiriladigan tadbirning iqtisodiy hamda biologik samarasini hisobga olish zarur. Yeryong‘oq donxo‘ri (Pachymerus pallidus Oliv.) (Bruchida – donxo‘rlar oilasi, Coleoptera – qattiqqanotlilar turkumi) Bu zararkunanda yeryong‘oq o‘simligiga yoki omborxonada saqlanayotgan hosilga zarar yetkazadi.Bu hasharot yeryong‘oqdan 146 boshqa dukkaklilarda ham urchib ko‘payishi aniqlangan. U boshqa joylarga yeryong‘oq doni, dukkagi bilan birga tarqalishi mumkin. Yeryong‘oq donxo‘ri yeryong‘oq dukkagiga va tozalangan donga – 7 tadan tuxum qo‘yadi, 20 kunda voyaga yetadi. So‘ngra lichinka yeryong‘oq dukkagida omborda yeryong‘oq donchalari orasida pilla o‘rab g‘umbakka aylanadi.

Yeryong‘oq donxo‘ri Misr, Suriya, Sudan, Arabiston, Seylon,Yugoslaviya Qrim va boshqa joylarda ko‘p zarar yetkazadi. Bu qo‘ng‘iz oval shaklda, biroz yassi, qanot ustligining yelka qismi do‘ppaygan, yaxshi ko‘rinib turadi, qanotusti to‘q jigarrang, och qo‘ng‘ir tuklari bor. Yeryong‘oq donxo‘riga qarshi kurashda detsis 2,5 % em.k. 0,25 l/ga; fufanon 57% em.k., 0,6–0,8 l/ga; benzofosfat 30% em.k. 2,3 Kungaboqar kapalagi (Homoeosoma nebulella Hb.) (Pyralidae – parvonalar oilasi, Lepidoptera – tangaqanotlilar turkumi) Bu hasharot kungaboqarning ancha jiddiy zararkunandasi hisoblanadi; chunki u ko‘plab paydo bo‘lgan vaqtlarda kungaboqar hosili deyarli batamom nobud bo‘ladi. Bu hasharot ba’zan kungaboqar kuyasi deb ataladi, bu noto‘g‘ri, chunki u

kapalaklar (Pyralididae) oilasiga kiradi. Kungaboqar kapalagi O‘rta Osiyo, Qozog‘iston, Kavkaz, Yevropaning o‘rta va janubiy qismlarida, Turkiya, Sibir,Yevropa, Shimoliy Afrikada uchraydi.

Kapalagi qanotlarini yozganda 2–2,7 mm kattalikda bo‘ladi; oldingi qanoti ensiz, oqish yoki kulrang, o‘rtasiga yaqinroq joyida hamma vaqt aniq ko‘rinib turmaydigan 4 ta qoramtir nuqta bor; keyingi qanoti birmuncha enliroq va oqishroq bo‘ladi. Kapalakning paypaslagichlari yuqoriga qayrilgan; oldingi qanotida uchinchi radial tomir yo‘q; keyingi qanotidagi medial tomir ikkiga shoxlangan. Tuxumi oq, yaltiroq, 0,8 mm kattalikda bo‘ladi. Qurtining bo‘yi 1 sm ga yetadi; och kulrang, usti qoramtirroq; orqasi bo‘ylab uchta jigarrang yo‘l o‘tadi; biqinida nafas olish teshiklari bo‘ylab bittadan qoramtir chiziq o‘tadi. Qurtning tanasi tukchalar bilan siyrak qoplangan.G‘umbagi 9–12 mm kattalikda; jigarrang; tanasining oxirida to‘g‘nag‘ichsimon yo‘g‘onlashgan 6–7 ta tikonchasi bor; urchuqsimon pishiq oqish pillaga joylashib oladi; uning uchiga ko‘pincha tuproq zarrachalari ilashgan bo‘ladi. Kungaboqar kapalagi O‘rta Osiyo sharoitida qanday hayot kechirishi aniqlanmagan. O‘tkazilgan tekshirish natijalariga ko‘ra, bu hasharot pilla bosqichida yerda qishlaydi; bahorda g‘umbakka aylanadi; qushqo‘nmas (Carduus) o‘ti gullashi davrida voyaga yetgan kapalagi qorong‘i tushishi bilan ucha boshlaydi; kunduzi o‘simliklarbargi ostida yoki kesakchalar panasida. Kapalak ucha boshlagandan keyin tez orada urg‘ochisi tuxum qo‘yishga kirishadi; u kungaboqar yoki boshqa murakkab gulli o‘simliklar guldastasidagi gul otaliklariga, ba’zan gul onaligiga va gullarning ichki sathiga bittadan tuxum qo‘yadi. Kungaboqarning bitta savatchasiga juda ko‘p tuxum qo‘yishi mumkin. Bitta urg‘ochi kapalak 200 – 300 ta tuxum qo‘yadi. Bu zararkunandaga qarshi kurashda ekin dalalari atrofidagi murakkabgulli begona o‘tlarni yo‘qotish, hosil yig‘ibterib olingandan keyin dalani shudgorlash, kungaboqarning zararkunandalardan shikastlanmaydigan navlarini ekish katta ahamiyatga ega. Masalan, kungaboqarning «kuyaga chidamli» («panserli») navida urug‘ning po‘kak to‘qimasi bilan sklerenxima to‘qimasi o‘rtasida uglerodli qavat bo‘ladi, bu qavatni qurt tesholmaydi, kapalak qurti urug‘ga o‘tishi vaqtigacha uglerodli qavat tegishli darajada qotgan bo‘ladi, qurt endi bu urug‘ po‘chog‘iga kiradi, lekin uning ichiga teshib kira olmaydi. Kimyoviy preparatlardan quyidagilar ishlatiladi: detsis 2,5% em.k., 0,25 l/ga; ohak-oltingugurt qaynatmasi (OOS) 0,5–1,0 l/ ga, 100 l suvga qo‘shiladi. Karbofos 50% em.k., 6–0,8 l/ga; va boshqalar. 148 2.8. Maxsarning bargi, poyasi, guldastasida shirasini so‘rib yashaydi. Hosilni keskin kamaytiradi. Bu respublikamizning juda ko‘p viloyatlarida tarqalgan zararkunanda. Bu bitning qanotsizi 2,5–4 mm, qanotlisi 2,5–3,5 mm kattalikda bo‘lib, tanasi to‘q jigarrang yoki qora tusda, yaltiroq. Shira so‘rish naychasi silindr shaklida, qora tusda. Qanotsizining mo‘ylovi tanasidan kaltaroq, qanotlisining mo‘ylovi tanasidan uzunroq bo‘ladi. Qanotsiz bitning tanasi noksimon do‘ppayib chiqqan, qornida qator joylashgan tukli do‘mboqchalari bor. Bu bit maxsarga erta tushib, tez ko‘payadi, katta to‘da hosil qiladi. Qanotli bitlar may oyidan oktabrgacha uchraydi. Maxsar biti quyidagi murakkabgulli o‘simliklarda: bo‘tako‘z, bo‘ztikan, kakrada uchraydi. Shuning uchun maxsar orasidagi murakkabgulli begona o‘tlarni yo‘qotib turish kerak. Maxsar ildiz biti tushgan o‘simlik zaiflashadi. O‘zbekistonda va Qozog‘istonda ko‘p tarqalgan. Qanotsiz urg‘ochi bit 1,7–2,6 mm, qanotlisi 1,6–2,2 mm kattalikda bo‘ladi. Qanotsizi oval shaklda bo‘ladi, qanotsizining mo‘ylovi tanasining yarmiga teng bo‘ladi. Bitlarning shira so‘rish naychasi silindrsimon, uzunligi mo‘ylovining oltinchi bo‘g‘imiga teng joylashgan. Qanotsiz bitlarning rangi mum g‘uborli-yashil tusda, boshida, ko‘krak tergitlarida, qornining ikkinchi va uchinchi tergitida ko‘ndalangiga joylashgan uzuq-uzuq qora yo‘llar bor; qornining to‘rtinchi va beshinchi tergitlarida yo‘l-yo‘l ikkita to‘garak dog‘ shaklida qo‘shilib ketgan, yettinchi va sakkizinchi tergitlarida bittadan ko‘ndalang ingichka dog‘i bor. Qanotli bitning tanasi oval shaklda bo‘lib, keyingi tomoni sal kengaygan, boshi va o‘rta ko‘kragi qora yoki to‘q qo‘ng‘ir, qorni yashil, orqasining oldingi qismida va ko‘pincha qornining oltinchi va yettinchi tergitlari o‘rtasida qoramtir yo‘llar bor, qornining ikki yonida esa qoramtir dog‘chalari bor .

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kimsanboyev X.X., Yo’ldoshev A. va boshqalar - O’simliklarni kimyoviy himoya qilish. Darslik - T.: “O’qituvchi”, 1997.-280b

2. Xo'jaev SH.T., Xolmurodov E.A. - "Entomologiya, o'simliklarni zararkunandalardan uyg'unlashgan himoya qilish, qishlok xo'jalik ekinlarini himoya qilish va agrotoksikologiya asoslari". Darslik - Toshkent, "Fan" nashriyoti, 2009.-396 b.
3. Xasanov B.O. va boshqalar "G'o'zani zararkunanda kasallik va begona o'tlardan himoya qilish". Darslik- "Universitet" nashriyoti, Toshkent. 2002.-379
4. O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligida ishlatish uchun ruxsat etilgan pestitsidlar va agroximikatlar ro'yxati. "O'simliklar himoyasi va karantini" jurnali ilovasi. Toshkent, 2013.-335 b.
5. YAxontov V.V. - O'rta Osiyoda qishloq ekinlarining va mahsulotlarining zararkunandalarini va ularga qarshi kurash. Darslik- T., 1962. -186 b.
6. Vasilev V.II., Livshits I.Z.- Vrediteli plodovых kultur 2-e izd. Uchebnik.-M.: «Kolos», 1984,-190 b.